



Criminological and criminal-legal measures to combat domestic crimes

Gulrukh SHERMATOVA¹

Samarkand Regional Department of Justice

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

domestic crimes,
crime,
victim,
rehabilitation,
physical violence,
mental violence,
sexual violence,
financial violence,
criminological analysis,
legal illiteracy.

ABSTRACT

This article examines the various types of domestic crimes, their criminological and criminal-legal aspects, as well as the features of their qualification. It also explores preventive measures and provides relevant suggestions and recommendations for addressing these offenses.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp221-226>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maishiy jinoyatlarga qarshi kurashishning kriminologik va jinoyat-huquqiy choralari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

maishiy jinoyatlar,
jinoyat,
jabrlanuvchi,
reabilitatsiya,
jismoniy zo'ravonlik,
ruhiy zo'ravonlik,
jinsiy zo'ravonlik,
moliyaviy zo'ravonlik,
kriminologik tahlil,
huquqiy savodsizlik.

Mazkur maqolada maishiy jinoyatlarining turlari, ularning kriminologik va jinoyat-huquqiy jihatlari, ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari hamda uning oldini olish choralari yoritilib, tegishli taklif hamda tavsiyalar berilgan.

¹ First Category Inspector of the Civil Registry Office No. 1 of the Samarkand City Department of Justice, Samarkand Regional Department of Justice. E-mail: Shermatovaguli1@gmail.com

Меры криминологического и уголовно-правового противодействия бытовым преступлениям

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

бытовые преступления, преступность, потерпевший, реабилитация, физическое насилие, психическое насилие, сексуальное насилие, финансовое насилие, криминологический анализ, правовая неграмотность.

В статье рассмотрены виды бытовых преступлений, их криминологические и уголовно-правовые аспекты, особенности квалификации данного вида преступлений и меры по их предупреждению, а также даны соответствующие предложения и рекомендации.

Hozirgi globallashuv davrida boshqa davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi hududida ham maishiy jinoyatlar, ya'ni jabrlanuvchiga nisbatan uning oila a'zolari tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar dinamikasining kun sayin o'sib borishi jamiyatdagi xavfsizlikka va ijtimoiy barqarorlikka katta tahdid solib kelmoqda. Kriminologik jihatdan olib qaraganda, bunday turdagi jinoyatlarning aksariyati oiladagi ma'naviy muhit jinoyat qilishga moyil shaxslar tomonidan sodir etilishi nafaqat jabrlanuvchiga, balki jamiyatga ham katta zarar yetkazadi.

Kriminologiya fani olimlaridan biri A.S. Pashchenko, "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" atamasiga "oila a'zolariga nisbatan odamlarni o'zlari istamagan narsalarni qilishga majburlash uchun tahdid yoki jazo sifatida og'riq, haqorat, jismoniy cheklash maqsadida ularning irodasiga qarshi harakatlar jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lgan noqonuniy harakat" [1] deb ta'rif bergan bo'lsa, E.P. Agapovning fikricha, "oilaviy zo'ravonlik yoki maishiy zo'ravonlik – qasddan jismoniy va/yoki ruhiy zarar yetkazish va oila a'zolariga azob berish, shu jumladan, bunday xatti-harakatlar bilan tahdid qilish, majburlash, shaxsiy erkinlik mahrum qilish, ya'ni, zo'ravonlik – bu inson ustidan cheksiz hokimiyatga erishish, boshqa odamning xatti-harakatlari, fikrlari, his-tuyg'ularini to'liq nazorat qilish" [2] deb hisoblagan.

Statistik ma'lumotlar tahlil qilinganda, O'zbekistonda 2024-yilning birinchi choragida sudlar tomonidan 4477 nafar shaxsni oiladagi zo'ravonlik moddalari bo'yicha javobgarlikka tortilgan. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi – oiladagi (maishiy) zo'ravonlik bo'yicha 4343 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, ulardan 2344 nafariga jarima jazosi qo'llangan, 1999 nafari esa ma'muriy qamoqqa olingan.

Bundan tashqari, takror yoki og'irlashtiruvchi holatlar bilan sodir etilgan oiladagi (maishiy) zo'ravonlik uchun 134 nafar shaxs Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi bilan sudlangan, shundan 51 nafariga ozodlikdan mahrum qilish, 83 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan [3].

Oiladagi zo'ravonlik muammosi nafaqat bir oilada, balki butun jamiyatda nosog'lom ijtimoiy-axloqiy muhit mavjudligidan dalolat beradi. Oiladagi zo'ravonlik katta ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik muammodir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 23-martda qabul qilingan hamda Senat

tomonidan 2023-yil 6-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bunga misol bo‘ladi [4].

Shuningdek, 2019-yil 2-sentyabr “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni [5], 2021-yil 19-may “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori [6], 2021-yil 6-oktyabr “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori [7] kabi normativ huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Mazkur normativ huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi nafaqat ayollar va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini zulm va zo‘ravonlikdan himoya qilishning institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan, balki huquqni qo‘llash amaliyotidagi ayrim muammolarni hal etishga oid masaladir. Bu ayollar va bolalar huquqlariga daxldor jinoyatlar uchun mutanosib jazo choralarini belgilash bilan bog‘liq, chunki ayollarni ta‘qib va zo‘ravonlikdan himoya qilishning milliy qonunchiligimizda deyarli qonuniy kafolatlari mavjud emas edi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59² – moddasida keltirilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsning harakatlari BHMning 20 baravarigacha miqdorda jarima solish yoki 15 sutkagacha ma‘muriy qamoq, shuningdek, Jinoyat kodeksining 126¹-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etgan shaxsning qilmishi esa 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo bilan kvalifikatsiya qilinishi belgilandi.

Mazkur norma ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olishga qaratilgan bo‘lib, bu oilalarda ma‘naviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Har yili juda ko‘plab insonlar ham qarindoshlari, ham boshqa shaxslar tomonidan jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lmoqdalar va bu muammo dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham mavjud. Maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladigan ish emas, balki jamiyat, davlat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi harakatlarini talab qiladigan muhim masala hisoblanadi. Kriminologik va jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan, maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish uchun to‘g‘ri usullar va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Maishiy jinoyatlar – bu oiladagi bir yoki bir nechta a‘zolar tomonidan, oilaning boshqa a‘zolariga qarshi sodir etilgan jinoyatlardir. Bunday turdagi jinoyatlar oila a‘zosi tomonidan boshqa shaxsga nisbatan zo‘ravonlik qilib jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik) oqibatida sodir etiladi. Umuman olganda, maishiy jinoyatlarning kriminologik sabablarini aniqlash, ularning oldini olish va jazolash muhim ahamiyatga ega.

Maishiy jinoyatlarning asosiy turlari quyidagilar:

Jismoniy zo'rvonlik: bu turdagi jinoyatlar oila ichidagi jismoniy zo'rvonlikni o'z ichiga oladi. Jismoniy zo'rvonlik qasddan badanga shikast yetkazish oqibatida asosan xotin-qizlar va bolalarga nisbatan ayovsiz munosabatda bo'lishni anglatadi.

Ruhiy zo'rvonlik: oila a'zolariga ruhiy jihatdan tazyiq qilish, ular ustidan psixologik zo'rvonlikni amalga oshirish. Bunday jinoyatlar ko'pincha haqorat qilish, tuhmat, tahdid qilish, jamiyatdan ajratib qo'yish bilan amalga oshiriladi

Jinsiy zo'rvonlik: jabrlanuvchiga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'rvonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash. Bunga xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik, pedofiliya, jinsiy tazyiqlar kiradi.

Moliyaviy (iqtisodiy) zo'rvonlik: xotin-qizlar va bolalarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'rvonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik).

Maishiy jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jinoyatlar ko'pincha oilada sodir bo'ladi va ularni tashqi tomondan aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilish sababi esa oila a'zolari o'rtasida muntazam davom etib keladigan kelishmovchiliklar, ruhiy beqarorlik va moliyaviy qiyinchiliklardir.

Maishiy jinoyatlar turli omillar bilan bog'liq. Ular asosan ijtimoiy, psixologik, madaniy, iqtisodiy va huquqiy omillardan iborat.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:

Kambag'allik va ishsizlik: oila a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ularning o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlik va kambag'allik stressni oshirib, oilaviy zo'rvonlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim darajasi: ta'lim darajasining past ekanligi ham maishiy jinoyatlarning sodir etilishiga katta sabab bo'ladi. Oilada yetarli darajada ta'lim, tarbiyaning sust ekanligi zo'rvonlik sodir etayotgan shaxsning kriminologik portretini chizishda muhim rol o'ynaydi.

Psixologik omillar:

Ruhiy kasalliklar: psixologik kasalliklar yoki stress tufayli oila a'zolarining bir-biriga nisbatan zo'rvonlik ko'rsatishi mumkin.

Travmalar: oila ichidagi zo'rvonlikni avval o'tkazgan shaxslar bu xatti-harakatlarni keyingi avlodlarga ham ko'rsatishlari mumkin. Shu tarzda, travmalar oila ichida siklik zo'rvonlikka olib keladi.

Madaniy va diniy omillar:

"Qadriyatlar": jamiyatda ba'zi oilalar tomonidan o'rnatilgan "qadriyatlar" va jinsiy tengsizlik oilada zo'rvonlikning asosiy sabablaridan biridir. Ya'ni jabrlanuvchini muntazam ravishda jamiyatdan ajratib qo'yish, jins va yoshga qarab turli xil cheklovlar qo'yish bunga misol bo'ladi.

Diniy ta'limotlar: ayrim jamiyatlarda diniy e'tiqodlar va urf-odatlar, oila ichidagi zo'rvonlikni "qo'llab-quvvatlaydi" [8].

Huquqiy omillar:

Huquqiy savodsizlik: maishiy jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar o'zlarining konstitutsion huquqlari mohiyatini yaxshi tushunmasligi, qolaversa ularni amalda qo'llay olmasligi zo'ravonlikni sodir etib kelayotgan shaxsning harakatlarini muntazam sodir etilishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida jinoyatni sodir etgan shaxs ham o'zining ijtimoiy xavfli qilmishi oqibatini anglamaydi yoki anglashni istamaydi.

Jazolash tizimining zaifligi: sud-huquq tizimida bu turdagi jinoyatlarga qarshi samarali kurash choralarining yetari bo'lmaganligi yoki mavjud emasligi bunday turdagi jinoyatlarning o'sishiga sabab bo'ladi [9].

Ushbu jinoyatlarning kriminologik oqibatlariga to'xtaladigan bo'lsak, maishiy zo'ravonlik qurbonlari o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi va ruhiy holatini bir me'yorda saqlab qolishi qiyinlashadi. Bundan tashqari maishiy jinoyatlar ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi, chunki ularning tarqalishi jamiyatdagi umumiy xavfsizlik muhitini buzadi. Ba'zi rivojlangan davlatlarning sud-huquq tizimida maishiy jinoyatlar bilan kurashishning bir qancha samarali usullari mavjud.

1. Profilaktik dasturlar: maishiy jinoyatlar uchun profilaktika oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlash, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, jamoatchilik faollari tomonidan shaxsga o'z huquqlarini tushuntirish, uning oqibatlari haqida yetarli ma'lumot berish oilaviy zo'ravonlikni oldini olishning samarali vositalaridan biridir.

2. Jinoyatchilik statistikasi ma'lumotlar bazasini shakllantirish: jinoyatlar qayd etilib, jinoyatchilarni aniqlash va ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar va statistika usullari bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi [10].

Xulosa qilib aytganda, maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish, uni sodir etgan shaxsga nisbatan odilona jazo turini qo'llashda rivojlangan davlatlarning sud-huquq sohasida amalga oshirgan islohotlarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish uchun uchun quyidagi usullarni amaliyotga tatbiq etish tavsiya qilinadi:

1. Samarali jazo tizimini ijro etish: O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida maishiy jinoyatlarni sodir etgan shaxs va jabrlanuvchining avvalo ruhiy holatini, sha'ni, qadr-qimmatini, uning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishini hisobga olgan holatda qo'llaniladigan jazo odillik va insonparvarlik prinsipiga mos bo'lishi zarur. Chunki aksariyat holatlarda jazo ijro etilgandan keyin jinoyat sodir etgan shaxs ham, jabrlanuvchi ham kuchli psixologik ta'sir ostida boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etish holatlari (masalan o'z joniga qasd qilish) ham amaliyotda uchramoqda.

2. Nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik. Maishiy jinoyatlar jiddiy ijtimoiy muammo bo'lib, jamiyatni zaiflashtiradi. Ularni kamaytirish uchun kriminologik va jinoiy-huquqiy choralar samarali ishlatilishi zarur. O'zbekiston sharoitida ham nodavlat va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi harakatlari xususan huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish muhim rol o'ynaydi. Bunda faqat jabrlanuvchiga emas, balki maishiy jinoyatni sodir etgan shaxsni psixologiyasi va ijtimoiy holatini o'rganish, unga yordam ko'rsatish kelgusida bunday jinoyatlarni sodir etishdan qaytarishda samarali usullardan biridir.

Jamiyatdan "ajratib qo'yish". Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa turdagi huquqlariga muttasil ravishda tajovuz qilib kelayotgan oila a'zosi u ijtimoiy va ruhiy barqarorlikka erishgunga qadar, nafaqat oilasidan balki jamiyatdan izolyatsiya qilinishi kerak. Buning uchun davlat va nodavlat

tashkilotlaridan jinoyat sodir etgan shaxsni o'zining xavfli qilmishi oqibatlarini anglashi va qayta jinoyat sodir etmasligini oldini olish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://exsud.sud.uz/statistic>
2. Пашченко А.С. Оиладаги зўравонлик тушунчаси // Ижтимоий ривожланиш назарияси ва амалиёти. 2005 йил. № 1. 46-48-бетлар
3. Агапов Э.П. Оилавий психология. М.: "Дашков ва Ко" нашриёт-савдо корпорацияси, 2012. 400 б.
4. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.
5. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019-y., 03/19/561/3680-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 10.12.2021-y., 03/21/736/1144-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 19.10.2024-y., 03/24/977/0831-son.
6. Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021-y., 07/21/5116/0471-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son; 13.01.2025-y., 06/25/1/0022-son.
7. Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.10.2021-y., 09/21/625/0941-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son; 18.12.2023-y., 09/23/665/0942-son; 12.03.2024-y., 09/24/123/0201-son; 11.12.2024-y., 09/24/833/1016-son.
8. Human Rights Watch Report on Domestic Violence (2020). – Maishiy zo'ravonlikning jahon miqyosidagi statistikasi va jinoiy-huquqiy baholash. Human Rights Watch, 2020. URL: www.hrw.org
9. Shamsutdinov.A Kriminalistika asoslari– Kriminalistik tahlil va jinoyatlarni aniqlash usullari. Toshkent: «Ilm Ziyo» nashriyoti.2015
10. Williams, S. & Nelson, M. (2016). The Societal Impact of Domestic Violence: Case Studies and Interventions. London: Routledge.